

**AVSTRALIYA ABORIGENLARINING KELIB CHIQISH MASALALARI**

*Muallif: Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti 1-bosqich talabasi  
Daminova Shahnoza Almat qizi.*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada aborignlarning kelib chiqishi, etnogenez masalalarining muhim jihatlari mavjud ilmiy adabiyotlar asosida atroflicha yoritiladi. Maqolada aborignlarning tarixi, ularning Avstraliya hududiga kelib joylashishi, bu haqida olimlarning tadqiqot va munozaralari, aborignlarning irqiy klassifikatsiyasi va antropologik xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** aborignlar, etnogenez, antropologik, irq, antropogenez, klassifikatsiya, ekspeditsiya, veddoavstroloid, negroavstroloid.

Avstraliya – (lotincha “avstralis”–janubiy) janubiy yarimsharda joylashgan qit'a hisoblanadi. Avstraliya inson tomonidan eng qadimda o'zlashtirilgan qit'alardan biri bo'lib uning tub aholisi – aborignlar o'ziga xos madaniyat va tarixga ega.

Aborignlar aslida qayerdan kelishgan?. Ularning kelib chiqishi haqidagi savol olimlarni hamon o'ziga jalb qilib kelmoqda. Beshinchi qit'a aholisining kelib chiqishi fanda eng qiziqarli va nihoyatda murakkab muammodir. Chunki bu yerning tub aholisi, ya'ni, aborignlar juda arxaik ibtidoiy tipdagi sodda, o'ziga xos madaniyatni bizning davrimizgacha saqlab qolgan. Bu qit'a aholisini o'rganishning murakkabligi shundaki, ularning jismoniy tuzilishi, tili va madaniyati boshqa biron xalqqa o'xshamaydi. Shuning uchun ularning etnogenezi to'g'risida bir yarim asrdan buyon tortishuvlar, turli mulohazalar davom etib kelmoqda. Ammo Avstraliya qit'asi antropogenez jarayoniga kirmasligi, ya'ni odamzotning vatani emasligi aniq. Demak avstraliyaliklarning qadimiy ajdodlari kelgindilar bo'lishgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Keyingi yillarda o'tkazilgan ba'zi antropologik va arxeologik tadqiqotlar natijasida ularning qayerdan va qachon kelganligi to'g'risida ba'zi ma'lumotlar ayon bo'ldi.

Avstraliyaliklarning kelib chiqishi to'g'risidagi fikrni rus olimi Ivan Simanov o'zining dastlabki tadqiqotlarida bundan 180 yil ilgari bayon etgan edi. XIX asrning 20-yillarida Sidneyga rus kemalarida kelgan ekspeditsiya a'zosi I.Simanov avstraliyaliklarni ko'rganda ular janubiy hindistonliklarning avlodlari, degan taxmini ilgari surgan. Antropologiya fa'ni Avstraliya tub aholisi Janubiy Osiyoning qadimiy xalqlari bilan tarixiy bog'liq ekanligini tasdiqlagan. [I.Jabborov. 2005. 67.69-b]. XIX asr o'rtalaridan ayrim sayyoh olimlar (E. Eyr, J.Prichard) avstraliyaliklarni tasodifan qit'aga adashib yoki qullikdan qochib kelgan afrikaliklarning avlodi degan bo'lsa,

ba'zi birlar Malayya arxipelagi va Yangi Gvineya orqali kelgan eng qadimiy okeaniyaliklarning avlodi, degan fikrlarni aytishgan. 1870-yillarda beshinchi qit'a bilan tanishgan rus tadqiqochisi va sayyohi N.N. Mikluxo-Maklay o'zining jiddiy kuzatishlari asosida avstraliyaliklarni mustaqil irq degan xulosaga keladi. Mazkur fikrni antropologik tadqiqotlar ham qisman tasdiqlagan. [A.Ashirov. 2014. 204.206-b].

Avstraliyaliklar o'ziga xos antropologik tipni tashkil qiladilar. Ayrim tadqiqotchilar qit'aning tub aholisi negroid va yevropoid irqi oralig'ida paydo bo'lgan deyishsa, boshqa olimlar avstraliyaliklarni katta negroavstroloid "ekvatorial irqning maxsus tipi" deb hisoblaydilar. Ularning sochlari qora, soqol-mo'ylovlari va badan tuklari qalin, terisining rangi negroidlarnikiga o'xshashroq to'q jigarrang, kalla suyagi uzunchoqroq, peshonasi nishablik, qosh usti suyagi chiqqan, labi qalin va burni kengroq, bo'yi o'rtacha yoki balandroq. Bunga o'xshash tiplarni Avstraliyadan tashqari Indoneziyada yoki Janubiy Osiyoda (masalan Shri Lankadagi veddalar), Hindistonning janubidagi qabilalarda uchratish mumkin. Shuning uchun ham mazkur tip fanda ba'zan "veddoavstroloid" deb ham yuritiladi.

Hozirgi klassifikatsiyaga binoan katta avstroloid irqiga Avstraliyaning tub aholisi kiradi. Demak avstraliyaliklarning ajdodlari bir zamonlar Janubi-sharqiy Osiyoda va Indoneziyada yashaganlar. XX asr o'rtalariga kelib aborijenlar etnogenezi haqida yetarlicha ma'lumotlar to'planadi. Qit'ada 30-40 ming yillar muqaddam yashagan odamlarning suyaklari, toshdan bol'gan mehnat qurollari topildi. Qit'aning geografik joylashuvi va Yava oroli (Vadyak)da topilgan avstroloid tipidagi ikkita kalla suyagining qoldiqlari bunga dalil bo'la oladi. Avstraliya hududining sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida topilgan qadimiy kalla suyagi qoldiqlari bu yerda odamlarning uzoq o'tmishda joylashuvi va Vadyak topilmalariga o'xshashligi etnogenez masalalariga ancha aniqlik kiritgan edi. Qolaversa Keylor (1940-y) makonidagi kalla suyagi tuzilishi jihatidan hozirgi avstraliyaliklarga yaqin turadi. Demak aborijenlar Avstraliyaga Janubi-sharqiy Osiyodan kelgani shubhasiz. Buni arxeologik topilmalar ham tasdiqladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda beshinchi qit'aga aholining ko'chish davri yuqori paleolitga to'g'ri keladi. Taxminan 18-19 ming yillar muqaddam Avstraliya qit'asi Osiyodan ajralgan bo'lib eng qadimiy avstraliyaliklar Janubi-sharqiy Osiyodan quruqlik orqali ko'chib kelganlar. Shungacha aloqador bo'lib turgan qadimiy Osiyolik ajdodlaridan ajralib qolgan avstraliyaliklar o'sha davr ijtimoiy tuzumi va madaniyatini mustahkam saqlab qolganlar.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. "Jahon etnologiya asoslari". Iso Jabborov. Toshkent. 2005.
2. "Etnologiya". Ahmadjon Ashirov. Toshkent. 2014
3. "Jahon xalqlari etnologiyasi". Tursun Salimov. Toshkent. 2018